

ARABIY O'ZLASHMALARNING O'ZBEK TILI TIZIMIDAGI O'RNI

Yakubova Nilufar Egamberganovna¹¹ UrDPI O'zbek va rus tili adabiyoti kafedrasи

o'qituvchisi +99899-960-50-20

niilufar.yakubova@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.06.2025

Revised: 16.06.2025

Accepted: 17.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

so'z yasalishi, o'zlashma
 so'zlar, motivlovchi asos,
 lig 'aviy birlik, arabiylig
 o'zlashma, o'zbek tili leksikasi

O'zbek tili leksikasida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar anchagina miqdorni tashkil etadi. Arab va fors-tojik lug'aviy o'zlashmaları affiksال so'z yasalishi jarayonida ayniqsa faoldir. Ushbu maqolada so'z yasalishi tufayli nominasiya jarayoni sodir bo'lishi hamda so'z o'zlashtirishning so'z yasalishiga munosabati tahlil qilinadi.

KIRISH. So'z yasalishini alohida mustaqil soha deb ajratish o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 70-80-yillarida yuz berdi. So'z yasalishi tufayli nominasiya jarayoni ta'minlanadi. So'z yasalishi tizimi doirasida so'z yasash bazasi, so'z yasash ma'nosi, so'z yasash vositasi, so'z yasash usuli, so'z yasash tipi, so'z yasash qolipi kabi tushunchalar mujassamlashgan. Ayniqsa, so'z yasash bazasi deb ataluvchi tushunchaning ahamiyati muhim va asosiyidir. Bu tushuncha so'z yasash vositasi, so'z yasash qolipi kabi ichki qismlar munosabatidan tashkil topadi. So'z yasash bazasining muhimligi shundaki, u yangi so'z hosil bo'lishida motivasiya asosi vazifasini o'taydi.

Tilda so'z yasalish tizimi shu tilning o'zigagina qarashli bo'lgan lisoniy birliklarga qarashli qolmaydi. So'z yasalishi jarayonida o'zga til lug'aviy unsurlarining roli ham kam emas.

O'zbek tili leksikasida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar anchagina miqdorni tashkil etadi. Arab va fors-tojik lug'aviy o'zlashmaları affiksال so'z yasalishi jarayonida ayniqsa faoldir.

Bu hol arabcha lug‘aviy o‘zlashmalari uchun ham xos. O‘zbek tilida hozirda ham faol amalda bo‘lgan arab va fors-tojik lisoniy birlklari so‘z o‘zlashtirishning tarixiy-an'anaviy ko‘rinishiga mansub, chunki istalgan har bir tilda an'ana mavjuddir.

E.Begmatov o‘zbek tilining leksik qatlamlariga bag‘ishlangan ishlarida o‘zbek tilining o‘z ichki lug‘aviy resursi bo‘lgan, o‘zbek tilining o‘zida asrlar davomida hosil qilingan so‘zlarni o‘zbekcha so‘zlar deb yuritadi . Bunday so‘zlearning ijodkori va egasi o‘zbek xalqi, o‘zbek tilidir. Chunki o‘zbekcha so‘zlarni o‘zbek tilida gaplashuvchi etnos o‘z tilining imkoniyatlari asosida yasaydi, uning lisoniy ijodkoridir, ya’ni “o‘zbekcha so‘zlar o‘zbek tilining o‘z so‘zi, o‘z mahsulidir” .

So‘z yasalishi haqida gap borganda so‘z hosil qiluvchi lug‘aviy negizning qaysi lug‘aviy qatlamga tegishli ekanini e’tiborga olish fikri o‘zbek tilshunosligida birinchi bor E.Begmatovning ishlarida ilgari suriladi. Ushbu munosabat bilan u arabcha o‘zlashmalar negizida yasalgan so‘zlar xususida qisqacha to‘xtalgan. Uning yozishicha, o‘zbekcha so‘zlar arabcha lug‘aviy negizlardan o‘zbekcha qo‘srimchalarni (taqsimlagich, asoslaromoq, niqoblaromoq); tojikcha so‘z yasovchi morfemalarni (amaldor, arizaboz, serixlos); hatto ba’zi arabcha morfemalarni qo‘sish orqali ham (majusiy, aqliy) yasaladi .

Ushbu maqolada so‘z o‘zlashtirishning so‘z yasalishiga munosabati tahlil qilinadi. O‘zlashgan lug‘aviy birlklar so‘z yasalishi jarayonida ishtirot etganda, tilning rivojlanishi uchun ikkinchi bor hissa qo‘shtan bo‘ladi. So‘z yasash bazasi darajasiga yetishgan o‘zlashma so‘zlar so‘z o‘zlashtirgan tilning deyarli o‘z so‘zi maqomiga kiradi.

O‘zlashmaning semantik moslashuvi o‘zlashmaning o‘zga tildagi maqomi va vazifasini belgilash uchun xizmat qiladi. Semantik moslashuv jarayonining bosqichlari “o‘zlashma makoronizm – o‘zlashmaning organik tarzdagi omonat mavqeい – o‘zlashma-o‘zniki, o‘zlashma-potensial va okkazional so‘z” tartibidan iborat .

“Arabcha so‘zlearning o‘zbek tiliga morfologik jihatdan moslashishi ikki holatda: a) arabcha so‘zlar negizida o‘zbek tilida yangi so‘zlar hosil qilinishida; b) arabcha so‘zlearning o‘zbek tilidan grammatik forma yasovchi qo‘srimchalarni qabul qila olishida yorqin ko‘rinadi” .

So‘z yasalishiga bag‘ishlangan ishlarda yangi lug‘aviy birlklarning hosil qilinishi bilan bog‘liq faollik - nofaollik darajasi, odatda, yasovchi vosita (motivlovchi formant, motivlovchi vosita) larga va ular qo‘shilishidan hosil bo‘lgan yangi lug‘aviy birlklarning oz-ko‘pligiga qarab belgilanadi, motivlovchi (yasovchi) asosning so‘z yasashdagi imkoniyatlari hisobga olinmaydi. Aslida, so‘z hosil qilish jarayonida so‘z yasalish strukturasining ana shu uzvi (motivlovchi // yasovchi asos) va uning imkoniyatlari ham hisobga olinishi kerak.

Motivlovchi asos (MA), ya’ni yasovchi asosning faollik – nofaollik imkoniyati motivlovchi vosita (MV) va uning faollik – nofaollik imkoniyatlariga o‘xshaydi. Farqi shundaki, MV faol bo‘lganda, u bir necha yasovchi (motivlovchi) asosga qo‘silib, undan

yangi lug‘aviy yasalmalar hosil qiladi; nofaol bo‘lganda, atigi bir - ikki motivlovchi asos (MA) ga qo‘shiladi va uning miqdori bilan mutanosib yasalmalar hosil qiladi.

Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalar o‘zbek tili so‘z yasalishi jarayonlarida ikki xil holatda ishtirok etadi: 1) bevosita; 2) bavosita. Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalar o‘zbek tili so‘z yasalish jarayonida bevosita ishtirok etganda, so‘zning so‘z yasalish strukturasi o‘zbek tilining o‘ziga tegishli bo‘ladi. Unda arab leksik birliklari o‘zbek tiliga mansub motivlovchi vosita (yasovchi vosita, yasovchi formant)lar bilan so‘z yasash munosabatiga kirishadi.

Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalar o‘zbek tili so‘z yasalishi jarayonida bavosita ishtirok etganda, motivlovchi asos (MA) maqomidagi uzbuning o‘zi yasama leksemalik xarakteriga ega bo‘lib, uning yasalish qolipi o‘zbek tiliga emas, boshqa tilga xos bo‘ladi. Bizning faktik materiallarimiz nuqtai nazaridan qaralganda, o‘zbek tili so‘z yasalishida bavosita maqom bilan qatnashadigan arab lug‘aviy o‘zlashmalari tojik tilida yasalgan yasalmalar tarkibida keladi. Masalan, mактабдорлик, mansabdorlik, zamonasozlik, bexabarlik, barkamollik, dabdababozlik va h.k.

Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalar o‘zbek tili so‘z yasalishining kompozisiya usuli doirasida ham yangi leksem birliklar hosil qilishda ishtirok etgan bo‘lsa, o‘shanday lisoniy xususiyatlар so‘z yasashning noaffiksal (kompozisiya) usuli yordamida hosil bo‘luvchi qo‘shma va juft so‘zlarning so‘z yasash strukturasida ham mavjud bo‘ladi. Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalar noaffiksal – kompozisiya usulidagi so‘z yasash jarayonida ishtirok etganda, motivlovchi asos (MA yoki yasovchi asos: YaA), motivlovchi vosita (MV yoki yasovchi vosita) uzvlari har bir komponentga sinxron - sinkret tarzda qorishib ketadi. Shu jihatdan noaffiksal – kompozisiya yo‘li bilan hosil bo‘lgan lug‘aviy yasalmalarning so‘z yasalish strukturası affiksasiya yo‘li bilan hosil bo‘luvchi lug‘aviy yasalmalarning so‘z yasalish strukturasidan farq qiladi. Masalan, xatsavod, boj-xiroj, qimmatbaho yasalmalarining so‘z yasalish strukturasidagi funksional uzvlar, affiksasiya yo‘li bilan hosil bo‘lgan yasalmalarning so‘z yasalish strukturasidan farqli ravishda , motivlovchi asos (yasovchi asos) va motivlovchi vosita (yasovchi vosita) singari funksional qismlarga ajralmaydi; ularning har bir komponentida ham motivlovchi asoslik, ham motivlovchi vositalik vazifalari bir vaqtida (sinxron tarzda) mujassamlashgan, qorishgan bo‘ladi.

Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalar ishtirokida hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlarni yasovchi uzvlardan birining qaysi tilga mansubligi nuqtai nazaridan quyidagi to‘rt guruhga ajratish mumkin: 1) yasovchi uzvlaridan biri o‘zbek tiliga mansub qo‘shma so‘zlar; 2) yasovchi uzvlaridan biri fors-tojik tiliga mansub qo‘shma so‘zlar; 3) yasovchi uzvlaridan biri rus tiliga mansub qo‘shma so‘zlar; 4) yasovchi uzvlarining har ikkisi ham arab tiliga mansub qo‘shma so‘zlar.

Yasovchi uzvlaridan biri o‘zbek tiliga mansub qo‘shma so‘zlarning deyarli ko‘pchiligi so‘z birikmalarining leksikalizasiyalashuvi natijasida hosil bo‘lgan. Ular so‘z turkumlari nuqtai nazaridan ot, sifat, ravish lug‘aviy grammatik kategoriylariga mansub bo‘ladi. Ot

turkumiga mansub qo'shma so'zlarning so'z yasalish qoliplari: "ot + ot"; "sifat + ot", "son + ot" ko'rinishlarga ega.

Sifat turkumiga mansub qo'shma so'zlarning tarkibi ham qo'shma otlarda kuzatilganidek, arab lug'aviy birliklarining o'zbekcha, forscha-tojikcha so'zlar bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan va o'zbekcha va arabcha so'zlar birikuvidan "No'z + Nar. = Nsubs" qolipi asosida reallashgan qo'shma sifatlar hosil bo'lgan: ishbay, kunbay.

Sifat turkumiga mansub qo'shma so'zlarning ko'pchiligidagi ularning vazifaviy uzvlaridan biri mavqeida forscha-tojikcha so'zlar qo'llangan. Ular Nf.-t. + Nar. = Nsubs qolipi asosida vujudga kelgan: xushmanzara, xushmulozamat, xushhol, xushmuomala, xushtabassum, xushsurat, xushsuhbat, xushtabiat, xushqad, xushtakalluf, xushtavoze, xushfe'l, qimmatbaho, harommamag'iz kabi.

Ziqnafas, sohibjamol, sobitqadam so'zlarining har ikki qismi ham arab tiliga qarashli. Ular Nar.+ Nar = Nsubs qolipida voqelangan.

Juft so'zlar (JS) ham noaffiksal so'z yasalishining o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir.

1. Arabcha va o'zbekcha lug'aviy birliklardan tarkib topgan JSlar.

Bu guruhga mansub JSlar unchalik ko'p emas. His-tuyg'u, qavm-qarindosh, aql-bosh, alam-achchiq, vaqt-chog'lik, salla-to'n, savdo-sotiq, salla-chopon JSlar Nar.+ No'z = Nsubs qolipida; kuch-quvvat, qurol-aslaha, yov-yaroq, o'ch-adovat, ish-harakat kabi JSlar No'z + Nar. = Nsubs qolipida vujudga kelgan.

2. Arabcha va fors-tojikcha lug'aviy birliklardan tarkib topgan JSlar. Bunday JSlarning vujudga kelish qoliplari ikki xil ko'rinishga ega: a) Nt.-f. + Nar. = Nsubs qolipida reallashadi: aft-bashara, jang-jadal, jon-hol, chang-g'ubor, noz-ne'mat, non-nasiba, noz-firoq, orzu-umid, orzu-havas va b.; b) Nar.+ Nt.-f. = Nsubs qolipida reallashadi: hol-jon, ahd-paymon, balo-battar, vaqt-bemahal, qulf-kalit, xayr-xo'sh, sabr-bardosh, ojiz-notavon, avra-astar, sayr-tomosh va b.

3. Arabcha va arabcha lug'aviy birliklardan tarkib topgan JSlar. Bu guruhga mansub JSlar miqdori oldingi ikki guruhnikiga nisbatan ancha ko'p: avlod-ajdod, ajoyib-g'aroyib, azob-uqubat, aysh-ishrat, alam-iztirob, amal-taqal, aql-hush, balo-ofat, balo-qazo, va'z-nasihat, vaqt-soat, jabr-jafo, jabr-zulm, jahd-jadal, murod-maqsad, murosa-madora, nasln-nasab, olam-jahon, omon-eson, sir-asror va b. Hisobimizga ko'ra, bunday yasalmalar 85dan ortikdir.

Arabcha lug'aviy o'zlashmalarning takroriy so'z (TS) shaklidagi ko'rinishlari ham mavjud: alvon-alvon, varaq-varaq, olam-olam, omon-omon, shart-shart, shartta-shartta, shart-shurt, qatra-qatra, qator-qator, halqa-halqa, g'adir-budir, hut-yut kabi.

O'zlashma lug'aviy birliklarning o'zbek tili so'z yasalishidagi ishtirokini tadqiq qilishdagi murakkab muammolardan birini yasalmaning uzatuvchi tilda yasalganlarini qabul qilgan til – o'zbek tilida yasalganlardan farqlash masalasidir. O'zbek tiliga kirgan bir qator so'zlar arab tilining o'zida yasalgan bo'lib, o'zbek tiliga o'sha shaklda o'zlashgan: adabiyot, amniyat, axborot kabi.

Xuddi shuningdek, yasalish asosida arabcha so‘z yotgan bir qator o‘zlashmalar fors-tojik tilida yasalgan bo‘lib, o‘zbek tiliga yasalma leksema sifatida o‘zlashgan. Bularni o‘zbek tilida yasalgan, o‘zbek tilining so‘z yasash tizimi mahsuli bo‘lgan leksemalardan farqlash lozim bo‘ladi. Bizning bu masaladagi kuzatishlarimiz negizida arabcha leksema yotgan 380 dan ortiq so‘zning o‘zbek tiliga arab tilidan yasalma so‘z sifatida o‘tganini ko‘rsatadi. Demak, bu so‘zlar arab tili so‘z yasalish tizimining mahsulidir va ular o‘zbek tilida yaxlit, turg‘un leksema sifatida tushuniladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov G‘. O‘zbek tilida arabcha so‘zlar. – Toshkent: Fan, 1995.
2. Abdullaeva M. O‘zbek tilida o‘zlashmalarning semantik o‘zgarishi. – Toshkent: Fan, 2014.
3. Qayumov A. Lug‘aviy so‘zlar tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
4. Mirzaeva D. O‘zbek tilidagi neytrallashgan o‘zlashmalar. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Mahmudov N. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
6. Xidoyatov A. O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning shakllanish jarayonlari. – Samarqand, 2009.
7. Eshonqulov B.X. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida arabiylug‘aviy o‘zlashmalarning paradigmik assimilyasiya munosabati. Avtoreferat. -T.: 1996.
8. Saloyev R., Avazmetov Sh -O‘zbek tilidagi arabcha va forscha so‘zlar lug‘ati” O‘qituvchi, 1996.